

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH
RESPUBLIKA ILMIY-METODIK
MARKAZI**

100011, Toshkent shahar, Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 30-uy
web-sayt: www.trm.uz, e-pochta: trm@exat.uz



**REPUBLICAN SCIENTIFIC AND
METHODOLOGICAL CENTER FOR
THE DEVELOPMENT OF EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

30, Navoi street, Shaykhontohur district,
Tashkent, 100011
web-site: www.trm.uz, e-mail: trm@exat.uz

2025-y. “26” ____ mart

№ ____ 01-02/5-143

**O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirligiga**

Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan “Inklyuziv ta’limda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar individual rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish bo‘yicha yo‘riqnoma, inklyuziv ta’limda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar individual rivojlantirish dasturi (individual ta’lim dasturi) maketi, inklyuziv ta’limda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar individual ta’lim dasturi namunasi” loyihasi yuzasidan berilgan takliflarni inobatga olgan holda (2025-yil 12-fevraldagi 04-39-468-sonli xatingizga asosan) takomillashtirilganligini hamda joriy yilning 24-mart kuni Markazning 15-son buyrug‘ri bilan tasdiqlanganligini ma’lum qiladi.

Shuningdek, mazkur hujjatlarni ishlab chiqishda Yaponiya Xalqaro hamkorlik agentligi (JICA) konsultantlari tavsiyalaridan foydalanildi.

Yuqoridagilarni inobatga olib umumiy o‘rta ta’lim maktablari inklyuziv ta’lim va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflarida korreksion-pedagogik ishlarni olib boruvchi maxsus pedagoglar uchun ishlab chiqilgan individual ta’lim dasturlarini amaliyotga tatbiq etishda amaliy yordam berishingizni so‘raymiz.

Tegishli ma’lumotlar ilovaga muvofiq yuborilmoqda.

Ilova: ____ v.

Direktor v.v.b.



Y.Risyukova



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

100011, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 2a-uy Tel.: (+998) 71 241-01-86; (+998) 55 503-74-00

web-site: www.uzedu.uz, e-mail: uzedu@exat.uz

2025-yil "1"-aprel

04-39-1463-son

Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalariga

Nusxasi: O'quvchilarni kasb-hunarga
yo'naltirish va psixologik-pedagogik
Respublika tashxis markaziga
(ma'lumot uchun)

Ta'limni rivojlantirish respublika
ilmiy-metodik markaziga
(Sizning 2025-yil 26-martdagi
01-02/5-143-sonli xatingizga)

Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi tomonidan ishlab chiqilgan **"Inklyuziv ta'limda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun individual rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish bo'yicha yo'riqnoma"**, **"Inklyuziv ta'limda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun individual rivojlantirish dasturi maketi"** hamda **"Inklyuziv ta'limda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun individual ta'lim dasturi namunasi"** loyihalaridan inklyuziv ta'lim va boshlang'ich tayanch korreksion sinflari tashkil etilgan umumiy o'rta ta'lim maktablarida korreksion-pedagogik ishlarni olib boruvchi maxsus pedagoglar ish faoliyati davomida foydalanishlari tavsiya etiladi.

Ilova: ____ varaq.

Vazir o'rinbosari



F.Boqiyev

Ijrochi: U.Xudayberdiyev
Telefon: (55) 503-74-00 (4090)



**Inklyuziv ta'limda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun individual
rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish bo'yicha
YO'RIQNOMA**

Mazkur yo'riqnoma O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son va Vazirlar Mahkamasining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son qarorlariga muvofiq, umumiy o'rta ta'limning inklyuziv ta'lim va boshlang'ich tayanch korreksion sinflaridagi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarini individual rivojlantirish dasturlarini (keyingi o'rinlarda – individual ta'lim dasturlarini) ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida o'quv-tarbiya jarayoni quyidagi o'quv-me'yoriy hujjatlar asosida tashkil etiladi:

davlat ta'lim standarti;

o'quv dasturlari;

tayanch o'quv rejalari (variativ va tanlov o'quv rejalari);

individual ta'lim dasturi.

2. Ushbu Yo'riqnomada quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

inklyuziv ta'lim - alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlagan holda beriladigan ta'lim;

inklyuziv ta'lim sinfi - maktabdagi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning boshqa (sog'lom) bolalar bilan teng huquqli va birgalikdagi ta'lim olishlari shaklida tashkil etilgan sinf;

o'quvchilar - inklyuziv ta'lim va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarda tahsil olayotgan sog'lom yoki alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar;

individual ta'lim dasturi - inklyuziv ta'limga jalb qilingan har bir alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning shaxsiy qiziqish-xususiyatidan kelib chiqib, uzoq va qisqa muddatli tuziladigan reja.

2-bob. Individual ta'lim dasturlarini ishlab chiqishning maqsadi va vazifalari

3. Individual ta'lim dasturlarini ishlab chiqishning maqsadi umumiy o'rta ta'limda inklyuziv ta'lim sinflariga qabul qilingan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni uzoq va qisqa vaqt ichida individual ehtiyojlari, qiziqish-qobiliyatlari, o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, imkoniyatlarini maksimal darajada rivojlantirish, muvaffaqiyatga erishishiga ko'maklashish, rag'batlantirishga qo'yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

4. Quyidagilar individual ta'lim dasturlarini ishlab chiqishning asosiy vazifalari hisoblanadi:

ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish: alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni jamiyatga moslashuvini ta'minlash;

mos o'quv usullari, yordamchi texnologiyalar, didaktik materiallarni tanlash: ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun individual shug'ullanish uchun mos usullar va materiallardan foydalanish;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ehtiyojlarini aniqlash: har bir bolaning o'ziga xos xususiyatlari, qiziqishlari va qiyinchiliklarini tahlil qilish;

individual, frontal, guruhli yondashuvni joriy etish: individual ta'lim dasturini alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolaning qobiliyatlari va o'quv sur'atlariga moslashtirish;

aniq maqsadlarni belgilash: alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun qisqa va uzoq muddatli maqsadlarni aniqlash;

natijalarni kuzatish: alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning rivojlanib borishi va natijalarini muntazam tahlil qilish va dasturga qo'shimcha tuzatishlar kiritish;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolaning motivatsiyani oshirish: bolalarning ta'limga bo'lgan qiziqishini saqlab qolish va uni doimiy rag'batlantirish.

3-bob. Individual ta'lim dasturini ishlab chiqish

5. Umumiy o'rta ta'limning individual ta'lim dasturini ishlab chiqish bir necha bosqichlarda amalga oshiriladi.

6. Umumiy o'rta ta'limning individual ta'lim dasturini ishlab chiqish uchun individual ta'lim dasturlarini ishlab chiqish bo'yicha yuqori malakali mutaxassislardan iborat ishchi guruhlar shakllantiriladi. Ishchi guruh tarkibi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi tomonidan tasdiqlanadi. Ishchi guruh tarkibiga olimlar, metodistlar, amaliyotchi o'qituvchilar va boshqa mutaxassislar kiritiladi.

7. Individual ta'lim dasturining amaldagi holati tahlil qilinib, xalqaro tajribalar, davlat, jamiyat va mehnat bozoriga bo'lgan talablari o'rganiladi. Individual ta'lim dasturlarini takomillashtirish, ishlab chiqish bo'yicha o'quvlar tashkil etilib mutaxassislar malakasi oshiriladi.

8. Individual ta'lim dasturlari loyihalarini ishlab chiqishda ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning hamkorligi, fanlararo integratsiyani ta'minlash, tutash mavzularga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shu sababli umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartida o'quvchiga qo'yiladigan talablar atroflicha o'rganilishi lozim.

9. Ishchi guruhlar tomonidan maxsus pedagoglar va boshqa xodimlar bilan birgalikda inklyuziv ta'lim sinfi o'quvchilari bilan ishlash rejasi tuziladi va ular sinfga uyg'unlashtiriladi.

10. Individual ta'lim dasturlari loyihasi davra suhbatlari, taqdimotlar, ijtimoiy tarmoqda muhokama qilish, maxsus portalda kelishish va boshqa shakllarda sohaning yetakchi mutaxassislari, amaliyotchi o'qituvchi va metodistlar hamda manfaatdor tashkilotlar vakillari ishtirokida muhokamadan o'tkaziladi. Zarurat bo'lganda, loyiha tajriba-sinovdan o'tkazish uchun tavsiya qilinadi.

11. Individual ta'lim dasturi loyihasi ishchi guruhlar tomonidan kelishish jarayonida to'plangan taqriz, xulosa, tavsiya va takliflar asosida takomillashtiriladi.

12. Tayyor bo'lgan individual ta'lim dasturi loyihasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika tashxis markazi Ilmiy-metodik kengashi yig'ilishi

muhokamasidan o'tkazilib, Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markaziga kelishishga yuboriladi va olingan xulosa asosida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlashga kiritiladi, tasdiqlanadi va amaliyotga joriy etiladi.

13. Tasdiqlangan individual ta'lim dasturlari umumiy o'rta ta'lim muassasalari tomonidan foydalanish uchun taqdim etiladi, jumladan, rasmiy saytlar va platformalarga joylashtiriladi.

14. Tasdiqlangan individual ta'lim dasturlarini o'quv jarayonida samarali qo'llash uchun maxsus pedagoglarga maqsadli seminar-treninglar tashkil qilinadi, pedagoglarni tayyorlash, qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish o'quv reja va dasturlariga kiritilgan holda tizimli tayyorlash ishlari olib boriladi.

15. Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining tegishli mutaxassislari tomonidan individual ta'lim dasturlarini ishlab chiqish jarayonida xalqaro tajribalar, davlat, jamiyat va mehnat bozori talablarini o'rganish, amaldagi individual ta'lim dasturlarini va xulosalarni tahlil qilish asosida ishchi guruhlariga talablar belgilab beriladi.

Ishchi guruh a'zolarini ilmiy-metodik qo'llab quvvatlash uchun mahalliy va xorijiy ekspertlar jalb qilinishi mumkin.

16. Individual ta'lim dasturi loyihasini tayyorlashda, qoida tariqasida, Misrosoft Word redaktoridan va quyidagi parametrlardan foydalaniladi:

sahifaning chap hoshiyasi 3 cm, o'ng hoshiyasi 1,5 cm, past va yuqori hoshiyalari 2 cm;

Times New Roman garnituras;

14 o'lchamli shrift;

birinchi qatorning satr boshi 1,27 cm;

qatorlar o'rtasidagi interval (mnojitel) 1 cm.

individual ta'lim dasturi matni sahifalari A4 formatda (210×297 mm);

sarlavhalar katta va qalin harflar bilan yoziladi;

individual ta'lim dasturining bir sahifasi va ilovalari alohida raqamlanishi kerak. Sahifaning tartib raqami sahifaning pastida o'rtada 2 raqamidan boshlab yoziladi, birinchi sahifaga 1 raqami qo'yilmaydi;

ilova belgisi 12 o'lchamli shriftda sahifaning yuqori o'ng burchagida, ilovaning raqami (agar ilovalar bir nechta bo'lsa), ilova qilinayotgan hujjat turi ko'rsatilgan hamda hujjat raqami va sanasi uchun joy qoldirilgan holda joylashtiriladi;

foydalaniladigan resurslar bobida individual ta'lim dasturini ishlab chiqishda foydalanilgan darsliklar, o'quv qo'llanmalar, xalqaro standartlar, internet saytlari keltiriladi;

individual ta'lim dasturi loyihasi lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida rasmiylashtiriladi.

4-bob. Individual ta'lim dasturining tarkibiy qismlari

17. Individual ta'lim dasturining tarkibiga quyidagilar kiradi:

titul varag'i;

titul varag'ining ikkinchi beti;

mundarija;

inklyuziv ta'limda individual ta'lim dasturining asosiy xususiyatlariga qo'yiladigan talablar;

maxsus pedagog tomonidan individual ta'lim dasturi bilan boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tanishtirish uchun olib boriladigan savollarga qo'yiladigan talablar;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni kuzatish jarayoniga qo'yiladigan talablar;

individual ta'lim dasturi maketini shakllantirishga qo'yilgan talablar;

individual ta'lim dasturida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning darsdagi xatti - harakatlarini psixologik-pedagogik baholash;

baholash natijasida aniqlangan muammolar va ulardan chiqish uchun amalga oshirilish zarur bo'lgan strategik rejalarga qo'yiladigan talablar;

foydalaniladigan resurslar.

18. Individual ta'lim dasturining titul varag'ida O'zbekiston Respublikasi Gerbi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi nomi, dastur nomi, o'quv dasturi joylashtirilgan platformaga integratsiya qilingan QR-kod belgisi va ishlab chiqilgan yili keltiriladi.

19. Titul varag'ining ikkinchi betida individual ta'lim dasturini tasdiqlash va kelishish joyi, dastur nomi va ishlab chiqilgan yili keltiriladi.

Individual ta'lim dasturini tasdiqlash va amaliyotga joriy qilinishini qayd qilish varag'ida individual ta'lim dasturi loyihasini muhokamadan o'tkazish hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlash tartiblari beriladi.

20. Inklyuziv ta'limda individual ta'lim dasturining asosiy xususiyatlariga quyidagicha talablar qo'yiladi:

individual ta'lim dasturi ham tenglikni, ham sifatni ta'minlashi zarurligi bois boshqa (sog'lom) bolalar qanday ta'lim rejasi asosida ta'lim olsa, individual ta'lim dasturi orqali alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni tengdoshlari bilan bog'lovchi ko'prik bo'lib xizmat qilishi kerak;

uzluksiz ta'limga bo'lgan yondashuvni ta'minlaydigan, ta'limning turli shakllarini bog'laydigan integral jihat bo'lib xizmat qilishi zarur;

har bir bolaning shaxsiy qiziqish-xususiyatlaridan kelib chiqib o'quvchilarning xilma-xilligiga javob berishi va natijaviyligi mavjud, uzoq muddatli bo'lishi shart.

21. Maxsus pedagog tomonidan individual ta'lim dasturi bilan boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tanishtirish uchun olib boriladigan savollarga qo'yiladigan talablar quyidagicha bo'lishi lozim:

o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish jarayonida g'ayri-odatiy harakatlari mavjud bo'lgan bolalar haqida aytib berishi;

nima uchun bu fikrga kelganligini;

mavjud ish faoliyati davomida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan yuzma-yuz kelish holatlariga (tushunchangiz yetarlimi?) uchraganligi;

sinfda ota-onalar yoki ularning o'rini bosuvchi shaxslarning yordamchi sifatida ishtirok etishiga bo'lgan munosabati;

korreksion-pedagogik ishlarni olib borishda qanday metodik yordam berilsa foydali va samarali bo'lishi;

ish faoliyatida yuzma-yuz kelgan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni yaxshiroq o'zlashtirishiga yana nima yordam berishi mumkinligi haqida fikrga egaligi;

umumiy o'rta ta'lim muassasasi inklyuziv ta'lim sinfiga moslashib ketishi uchun nimalar qilish zarurligi (qanday harakatlarni amalga oshirish rejalashtirilganligi);

boshqa (sogʻlom) bolalarning ularning ota-onasi yoki qonuniy vakillariga sinfda alohida taʼlim ehtiyojlari boʻlgan bolalar ham taʼlim olishi haqida tushuntirib bera olishi (ular xohlashmasa vaziyatdan qanday chiqishi haqida tushunchalari);

inklyuziv taʼlim sinfida maktab pedagoglari jamoasini oʻrni nimadan iboratligini bilishi;

shaxsiy ish faoliyati samaradorligini oshirishda nimalar zarur deb hisoblashi (qoʻshimcha qanday predmetlar zarurligi haqida fikri);

har bir inklyuziv taʼlim sinfiga qabul qilingan alohida taʼlim ehtiyojlari boʻlgan bolaning kelajagini koʻra olishi.

22. Maxsus pedagog tomonidan individual taʼlim dasturi bilan boshlangʻich sinf oʻqituvchilarini tanishtirish uchun beriladigan savollariga qarab qoʻshimcha talablar belgilanishi mumkin.

23. Agar oʻqituvchida oʻziga nisbatan ishonchsizlik hissi aniqlansa, quyidagi strategik tavsiyalar beriladi:

Boshlangʻich sinf oʻqituvchilarini qoʻllab-quvvatlash uchun strategik tavsiyalar	
Hissiy jihatdan	Akademik jihatdan
Sabr-toqatli boʻlish	Alohida taʼlim ehtiyojlari boʻlgan bolalar bilan munosabatga kirishish jarayonida asra-sekinlik bilan, aniq va ravon gapirib, soddadan murakkabga qarab yondashish talab qilinadi.
Tizimlilikka ahamiyat berish	Har bir jarayonda kichik-kichik, aniq qadamlardan foydalanish.
Bolaga xilma-xillik bilan munosabatga kirishishning muqobil yoʻllarini topish hamda erishilgan natijalarini doimiy ragʻbatlantirish	Har bir narsa yoki jarayon haqida tushuncha hosil qilish uchun iloji boricha turli yoʻllar bilan oʻrgatish, zaruratga koʻra ota-onalar yordamini olish.
Barqarorlik bilan oldindan koʻra olishga harakat qilish	Bolaga oʻqituvchining javobi yoki fikrini aniq tushuntirib berishi uchun yetarli vaqt ajratish, shoshilib bolani hayajonlantirmaslikka ahamiyat berish.
Ijobiy fikr bildirish	Bola tomonidan erishilgan har bir natijaga ijobiy fikr bildirish va qoʻllab-quvvatlash.
Jamoaviylikda ishlash mexanizmidan foydalanish	Alohida taʼlim ehtiyojlari boʻlgan bolalarga lider doʻstlar tayinlash va doʻstona munosabat muhitini yaratish.
Layoqat, qiziqish, kuch-adolat va manfaatlarni aniqlash	Bolalarni qiziqish-qobiliyatlaridan kelib chiqib yanada qulay boʻlgan tashqi muhit bilan bogʻlab, maktabga moslashtirishga yordam berish.
Dars ichida darslar tashkil qilish	Berilayotgan mavzularni koʻproq tushuntirish hamda mustahkamlash uchun dars ichida kichik darslar, aralash taʼlim tizimidan foydalanish.
Bolani hissiy jihatdan jamoaga kirishib ketishini taʼminlash	Taʼlim tizimida inklyuzivlikni taʼminlashda ota-ona bilan hamkorlikda ish olib borish. Ular bilan muloqot qilishdan choʻchimaslik, farzandi uchun nima yordam berishi haqidagi fikrlarini oʻrganish talab qilinadi.

24. Individual ta'lim dasturi tuzishdan oldin o'quv yili boshlanganidan so'ng sentar oyining ilk o'n besh ish kuni (vaqt bolaning asl holatiga qarab qisqarishi mumkin) davomida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar quyidagi savollar orqali kuzatilishi kerak:

O'qituvchi aniq maqsadlar, qo'llanilishi kerak bo'lgan usullar, bosqichlar, ketma-ketlikda ishlab chiqilgan dars rejasi bilan ish faoliyatini tashkil qilgan bo'lsada, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning moslashishida, javob berishida qiyinchiliklar uchrayaptimi?

O'qituvchi dars boshlashidan tortib, dars jarayonida hamma o'quvchilarning e'tiborini jalb qilgan holatda (bolani diqqatini jalb qilish uchun ko'rgazmali qurollardan foydalansa, yordamchi texnologiyalarni ishlatsa) ham kirishib keta olmayaptimi yoki o'zini o'rnini topib keta olmayaptimi?

O'qituvchi darsda yoki darsdan tashqari mashg'ulotlarda turli zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib ishlasa ham boshqa (sog'lom) tengdoshlari bilan munosabatga kirishib keta olmayaptimi (tengdoshi kelib u bilan tanishmoqchi bo'lganda, unga qanday reaksiya hosil qilyapti? U tabassum bilan javob beryaptimi yoki xohish bildirmayaptimi?)?

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bola boshqa (sog'lom) tengdoshining ko'rsatayotgan yordamiga qanday munosabat bildiriyapti?

Barcha (sog'lom) tengdoshlarini ismini yodida saqlab qola oldimi, o'zining ismi bilan chaqirsa qarayaptimi yoki anglashida muammolar bormi?

O'qituvchi dars mavzusini tanishtirib, mazmuni ochib berilgan holatda bolaning unga nisbatan munosabati qandayligi, berilgan yangi ma'lumotlarni qabul qilishni xohlaydimi yoki u uchun zerikarlimi?

O'qituvchi darsni yordamchi texnologiyalar, ko'rgazmali qurollar, tabiiy resurslar bilan bog'lab olib borgan holatda bola o'zini qanday tutyapti, darsga qiziqishi uyg'ondimi?

Olib borilayotgan mashg'ulotlar, dars jarayonida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar qanday ishtirok etyapti, kuzatish natijasida unda nimalar ko'rinyapti?

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi yoki maxsus pedagog tomonidan berilgan ochiq, yopiq savollarga munosabati qanday?

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar kim bilan ko'proq savol-javob qilishni xohlaydi, qaysi savollarga javob berishi qulay kechyapti?

Berilgan savollarga qay tartibda javob beryapti, o'quvchilar o'qituvchilarga qanday munosabatda bo'lyapti (javob berish jarayonida qanday harakatlar bilan isbotlab berishga harakat qilyapti)?

O'qituvchi tomonidan bolalarni baholashga qanday reaksiya bildirishi kuzatilyapti?

Rag'batlantiruvchi yoki salbiy bahoga munosabati: masalan, xursand, xafa, ahamiyatsizdek tuyilyaptimi?

Bola sinfga kirdi, joyiga o'tirdi, boshqa (sog'lom) o'quvchilarga moslashdi, berilgan topshiriqlarga javob berishda o'zini tutishi qanday (o'rnidan turib odatiy nutq bilan javob berishi, baqirib yuborishi, o'rnidan turmasdan turib aytishi yoki umuman javob bermaslikni xohlashi mumkin)?

Har bir dars jarayonida unga berilgan darsliklarga munosabati qandayligi, qiziqish bilan ushlayaptimi, oldiga olishni xohlayaptimi?

O'zi uchun shaxsiy deb bergan o'quv qurollari, kitoblar, mashq daftarlari nechog'lik qiziqiligi, ularga nisbatan mehr-muhabbat, asrab-avaylash kabi xislatlari shakllanganmi?

Boshqa (sogʻlom) bolalar tomonidan alohida taʼlim ehtiyojlari boʻlgan bolalarga berayotgan tashqi yordamga javob reaksiyasi qandayligi, oshxonaga, hojatxonaga, faollar zaliga, tabiat qoʻyniga olib chiqish uchun berilgan taklifga qanday munosabati kuzatilyapti?

Oʻz-oʻziga xizmat qilish koʻnikmasi qanday?

Agar bola 15 kunlik kuzatuv natijasida inklyuziv taʼlim sinfiga moslashib ketishida muammolarga uchrasa lekin baʼzi tomonlari bilan sinfdagi boshqa bolalardan koʻra muvaffaqiyatli jihatlari bilan ajralib tursa, turli xil yondashuvlarga yaxshiroq javob bersa, bunday holatda har bir qiyinchilikka uchragan bolaga oʻzlashtirishida yordam berishning muvaffaqiyatli usullarini aniqlash uchun boshqa davomiy strategiyalardan foydalanish zarurati tugʻiladi.

Agar alohida taʼlim ehtiyojlari boʻlgan bola sinab koʻrilgan birinchi strategiyaga javob bera olmasa ham ularga yana bir hafta berish va individual talablarga mos keladigan yondashuvni topmaguncha turli usullarni sinab koʻrish davom ettiriladi.

25. Davomiy strategiyalar quyidagi koʻrsatmalarni oʻz ichiga oladi:

alohida taʼlim ehtiyojlari boʻlgan bolalarga nima yordam berishi mumkinligini bilish, diqqat bilan kuzatish, qiziqish-qobiliyatlarini birinchi darajaga qoʻyish;

oʻqituvchi bolaning ota-onasi yoki ularning oʻrnini bosuvchi shaxslardan farzandi haqida toʻliq bilib olishi va unga yondashish uchun barcha maʼlumotlarni berishini soʻrashi, birgalikda faoliyat olib borishi samarali ekanligini tushuntirishi;

dastlabki berilgan strategik rejalarni ijobiy taʼsir qilganligini aniqlab, takomillashtirilishi lozim boʻlgan jarayonlarni baholash, zarurat tugʻilsa yangi strategiyalarni sinab koʻrish;

inklyuziv taʼlim sinfiga taʼlim olayotgan har bir alohida taʼlim ehtiyojlari boʻlgan bolalarga har xil yondashuv asosida yangi strategiyalardan foydalanish, bir vaqtning oʻzida bir nechta yoʻllar bilan tajribalardan oʻtkazish;

turli xil tashxis va xususiyatli alohida taʼlim ehtiyojlari boʻlgan bolalar uchun qoʻllanilgan strategiyalarga bir xil javob beradi degan tushunchadan yiroqroq yurish;

alohida taʼlim ehtiyojlari boʻlgan bolalarning tarixi haqida egallagan barcha maʼlumotlarni ishonchli ekanligiga ahamiyat berish, ota-onasi yoki ularning oʻrnini bosuvchi shaxslarni xabardor qilish hamda shulardan kelib chiqib samarali deb bilgan usullarini qoʻllash maktab hamda ota-onasi uchun qulay boʻlishi kerak.

26. Individual taʼlim dasturi alohida taʼlim ehtiyojlari boʻlgan bolalarning individual holatidan, qiziqish-xususiyatidan kelib chiqib, ota-onasi, amaliyotchi psixolog, tibbiyot xodimi, boshlangʻich sinf oʻqituvchisi bilan hamkorlikda har bir bola uchun alohida ishlab chiqiladi.

27. Alohida taʼlim ehtiyojlari boʻlgan bolalar uchun individual taʼlim dasturi loyihasi mazkur Yoʻriqnomaga 1-ilovada koʻrsatilgan shaklda rasmiylashtiriladi.

Individual taʼlim dasturida alohida taʼlim ehtiyojlari boʻlgan bolalarning darsdagi xatti-harakatlarini psixologik-pedagogik baholash mazkur Yoʻriqnomaga 2-ilovadagi baholash mezonlari asosida amalga oshiriladi.

Individual taʼlim dasturida alohida taʼlim ehtiyojlari boʻlgan bolalarning darsdagi xatti-harakatlarini psixologik-pedagogik baholash natijasida aniqlangan muammolar va ulardan chiqish uchun zarur boʻlgan strategik rejalarga mazkur Yoʻriqnomaga 3-ilovada keltirilgan talablar qoʻyilishi mumkin.

5-bob. Individual ta'lim dasturini tasdiqlash va joriy etish

28. Individual ta'lim dasturi loyihasi tajriba-sinov natijalariga ko'ra ijobiy baholangan taqdirda, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining tegishli sayt yoki platformalariga jamoatchilik muhokamasi o'tkazilishi uchun 20 kunga joylashtiriladi.

29. Jamoatchilik muhokamasi yakunlangandan so'ng, bildirilgan taklif va mulohazalar o'rganilib, ishchi guruh tomonidan bir hafta muddatda o'quv dasturi loyihasi amaldagi qonunchilik va davlat ta'lim standartlari talablari hamda ushbu Yo'riqnoma asosida takomillashtiriladi.

30. Individual ta'lim dasturi loyihasi manfaatdor tashkilotlar, mahalliy va xorijiy olimlar hamda ekspertlar tomonidan ekspertizadan o'tkazilishi va tegishli xulosa yoki taqrizlar olinishi maqsadga muvofiq.

31. Individual ta'lim dasturlarini tasdiqlashdan oldin Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika tashxis markazi Ilmiy-metodik kengashi yig'ilishi muhokamasidan o'tkazilib, xulosalar olinadi. Loyiha Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi bilan kelishilganidan so'ng O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining tegishli buyrug'i bilan tasdiqlanadi va amaliyotga joriy qilinadi.

32. Tasdiqlangan individual ta'lim dasturlari umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari rahbar va pedagoglari, ota-onalar va jamoatchilik foydalanishi uchun tegishli sayt yoki platformalarga joylashtiriladi. Individual ta'lim dasturlaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirish maqsadida o'quv dasturi titul varag'iga QR-kod belgisi joylashtiriladi.

6-bob. Yakuniy qoidalar

33. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun individual ta'lim dasturlari loyihalarini ishlab chiqish mazkur Yo'riqnoma talablariga rioya qilgan holda amalga oshiriladi.

34. Ushbu Yo'riqnoma talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

Inklyuziv ta'limda alohida ta'lim
ehtiyoblari bo'lgan bolalar uchun
individual rivojlantirish
dasturlarini ishlab chiqish va joriy
etish bo'yicha yo'riqnomaga
1-ilova

**Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun individual ta'lim dasturi loyihasining
namunaviy shakli**

“TASDIQLAYMAN” Toshkent shahar Bektemir tumani 290-sonli umumta'lim maktabi direktori “ ” .2025-yil. _____ (imzo) Toshkent shahri Bektemir tumani 290- sonli umumta'lim maktabi inklyuziv ta'lim sinfi o'quvchisi uchun 20__ -20__ o'quv yili I- chorakka mo'ljallangan individual ta'lim dasturi <table><tr><td>Bolaning to'liq F.I.SH.:</td><td>_____</td></tr><tr><td>Bolaining tibbiy xulosasi (tashxisi):</td><td>_____</td></tr><tr><td>Yoshi:</td><td>_____</td></tr><tr><td>Jinsi:</td><td>_____</td></tr><tr><td>Sinfi:</td><td>_____</td></tr><tr><td>Individual dasturini boshlanish vaqti: “ ” 20__</td><td></td></tr><tr><td>Individual dasturini yakunlash vaqti: “ ” 20__</td><td></td></tr><tr><td>Sinf rahbarining F.I.SH.:</td><td>_____</td></tr><tr><td>Maxsus pedagog F.I.SH.:</td><td>_____</td></tr><tr><td>Maktab amaliyotchi psixologi F.I.SH.:</td><td>_____</td></tr><tr><td>Maktab tibbiy xodimi: F.I.SH.:</td><td>_____</td></tr></table>	Bolaning to'liq F.I.SH. :	_____	Bolaining tibbiy xulosasi (tashxisi):	_____	Yoshi:	_____	Jinsi:	_____	Sinfi:	_____	Individual dasturini boshlanish vaqti: “ ” 20__		Individual dasturini yakunlash vaqti: “ ” 20__		Sinf rahbarining F.I.SH. :	_____	Maxsus pedagog F.I.SH. :	_____	Maktab amaliyotchi psixologi F.I.SH. :	_____	Maktab tibbiy xodimi: F.I.SH. :	_____
Bolaning to'liq F.I.SH. :	_____																					
Bolaining tibbiy xulosasi (tashxisi):	_____																					
Yoshi:	_____																					
Jinsi:	_____																					
Sinfi:	_____																					
Individual dasturini boshlanish vaqti: “ ” 20__																						
Individual dasturini yakunlash vaqti: “ ” 20__																						
Sinf rahbarining F.I.SH. :	_____																					
Maxsus pedagog F.I.SH. :	_____																					
Maktab amaliyotchi psixologi F.I.SH. :	_____																					
Maktab tibbiy xodimi: F.I.SH. :	_____																					

1-rasm.

Jadvalda individual ta'lim dasturini maktab direktori tomondan qanday tartibda tasdiqlashi va ko'rinishi aks ettirilgan. Undan keyin to'liq maktab nomi, dastur muddati va o'quv yili ko'rsatiladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolaning to'liq ismi sharifi, tibbiy tashxisi, yoshi, jinsi, sinfi, individual ta'lim dasturini boshlash hamda yakunlash muddati aniq ko'rsatib beriladi.

Dasturda sinf rahbari, maxsus pedagog, amaliyotchi psixolog, tibbiyot xodimini to'liq familiya, ismi, sharifi ham yozilishi kerak.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolaning asl holati (kuzatish natijasida)	
Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kuzatish natijasi	
<u>Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolaning kuchli tomonlari</u>	<u>Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolaning zaif tomonlari</u>
✓	✓
✓	✓
✓	✓

2-rasm

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolani inklyuziv ta'lim sinfiga qabul qilgan boshlang'ich sinf o'qituvchisi sentabr oyining ilk o'n besh ish kuni davomida kuzatish natijalarini yozadi. Bolani maktabga kirib kelish jarayonidan boshlab, darslardagi ishtiroki, boshqa (*sog'lom*) bolalar bilan munosabatga kirishish jarayonidagi har bir bolaning kuchli hamda zaif tomonlar sifatida ko'rsatiladi.

Bunda boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun oddiy holat deb tushunilgan jarayonlar ham o'z aksini topishi kerak. Kuzatish asosida amalga oshirilgan ishlar belgilab chiqiladi.

Maktab amaliyotchi psixologining kuzatish natijasi	
<u>Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning kuchli tomonlari</u>	<u>Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning zaif tomonlari</u>
✓	✓
✓	✓
✓	✓

3-rasm.

Amaliyotchi psixolog O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son qarori bilan tasdiqlangan Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomda ko'rsatilgan vazifalardan kelib chiqib, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning psixologiyasini inobatga olib, kuzatuv ishlarini olib boradi.

Mazkur jarayon alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ota-onasi ularning o'rnini bosuvchi shaxslar bilan hamkorlikda ishlash tavsiya qilinadi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni har xil vaziyatlarda ko'rish uchun ko'rgazmali qurollar, tabiiy predmetlar, faol o'quvchilarni ularga ta'sir ettirib ham kuzatish tavsiya qilinadi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolaning asl holati (kuzatish natijasida)	
Maxsus pedagogning kuzatish natijasi	
Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolaning <u>kuchli tomonlari</u>	Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolaning <u>zaif tomonlari</u>
✓	✓
✓	✓
✓	✓

4-rasm

Maxsus pedagog barcha darslarda, sinfdan tashqari va boshqa tadbirlarda berilgan mashg'ulotlar davomida ham kuzatib boradi. Kuzatish davomida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni qiziqishidan tortib qanday vazifalarni bajara olishi, qanday jarayonlarda ishtirok eta olmasligi kabi salbiy tomonlari ham to'liq kuzatiladi.

Shuningdek, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan maxsus vosita va metodlarni qo'llash, psixolog, maxsus pedagog va boshqa mutaxassislar bilan birgalikda korreksion-rivojlantiruvchi mashg'ulotlarini tashkil etish jarayonidagi kuzatish natijalari ham qayt etib boriladi.

Maktab tibbiy xodimi	
Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning <u>kuchli tomonlari</u>	Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning <u>zaif tomonlari</u>
✓	✓
✓	✓
✓	✓

5-rasm

Maktab tibbiyot xodimi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son qarori bilan tasdiqlangan Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomda ko'rsatilgan vazifalardan kelib chiqib, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning tibbiy tashxisini, jismoniy holatlarini inobatga olib, kuzatuv ishlarini olib borishi zarur.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ota-onasini farzandidan kutayotgan o'zgarishlardagi xohish va istaklari
✓
✓
✓
.....

6-rasm

Kuzatish davomida maxsus pedagog hamda boshlang'ich sinf o'qituvchisi ota-onalar bilan suhbat tashkil qilib boradi. Shu orqali ota-onaning xohish istaklari bilib olinadi va alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolani uy sharoitidagi holati, qiziqishlari haqida to'liq, ishonchli ma'lumotlar olinadi. Suhbat davomida ota-onalardan farzandidan kutayotgan natijalarini yoritib berish so'raladi. Individual ta'lim rejasi bir yil uchun tuzilayotgan bo'lsa ota-onadan bir yil ichida farzandida qanday o'zgarishlar kutayotganligini ifodalab berishlari lozim bo'ladi. Kuzatish natijasidagi fikrlar sonini chegaralab qo'ymaslikka ahamiyat berish zarur.

Uzoq muddatli maqsad (1 yillik)	
1.	_____
2.	_____
3.	_____
.....	_____
Qisqa muddatli maqsad (1 chorak)	
1.	_____
1.1.	_____
1.2.	_____
1.3.	_____
.....	_____
2.	_____
2.1.	_____
2.2.	_____
2.3.	_____
.....	_____
3.	_____
3.1.	_____
3.2.	_____
3.3.	_____
.....	_____

7-rasm

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bola uchun tuziladigan individual ta'lim dasturida mutaxassislarning tahlillari natijasida bir o'quv yili uchun uzoq muddatli ta'limiy, tarbiyaviy, ijtimoiy maqsadlarga yo'naltirilgan rejalar yoziladi (soni chegaralanmagan).

Bir yil davomida bolani ijtimoiy hayotga moslashtirishi, o'qish-yozishga o'rgatilishi, mantiqiy fikrlash ko'nikmasi shakllantirilishi kerak (Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga real maqsad *qo'yish talab etiladi. Agar u bir yildan keyin maqsadiga erisha olmasa, uni ayblamaslikdan boshqa maqsadni belgilash tavsiya etiladi. Shuningdek, maqsadlarni aniq qilib yozilishi kerak. Bola alifboni to'g'ri yoza oladi yoki bola sinfdoshlari bilan suhbat qura oladi kabi.*).

Maxsus pedagoglar bu namunani o'zgartirish hamda barcha o'zini alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga moslashtirishi mumkin.

Shu asosida bir o'quv yili uchun qo'yilgan uzoq muddatli maqsaddan kelib chiqib bir choraklik qisqa muddatli maqsad va aniq mashg'ulotlar yoziladi.

Bolani ijtimoiy hayotga moslashtirish uchun maktabdan tortib uy sharoitida ham qanday ishlar amalga oshirilishi yoziladi. O'qish-yozishga o'rgatish uchun sinfda eng faol va chiroyli husnixat egasini yoniga o'tkazish, ruchkani ushlashda muammolar kuzatilsa maxsus qisqichlardan

foydalanish, shuningdek, bir vaqtning o'zida qo'li va ko'zi bilan mashq qiladigan mashg'ulotlarni o'tkazish tavsiya qilinadi.

Mantiqiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirish uchun rasmiy hikoyalar, rolli o'yinlar o'ynash tavsiya qilinadi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning tashxisi hamda berilgan vazifalarga javob berish holatidan kelib chiqib murakkablashtirish hamda soddalashtirish imkoniyati berilishi zarur.

Birinchi qisqa muddatli maqsad va aniq mashg'ulotlardan kelib chiqib o'quvchi bilan bir chorak davomida aynan qisqa muddatli maqsadlarni qay tartibda amalga oshirilishi yoziladi (soni chegaralanmagan!).

Belgilangan mashg'ulotlar **I chorak** davomida o'tkazilgandan keyin amalga oshirilgan ishlar natijasi alohida qayd etib boriladi. Tuzilgan har bir reja bo'yicha o'quvchida o'zlashtirish ijobiy qayd etilsa **II chorak** uchun topshiriqlar bolaning holatiga qarab murakkabroq qilib ishlab chiqiladi.

Agar tuzilgan reja bo'yicha bolada o'zlashtirish salbiy qayd etilsa **II chorak** uchun topshiriqlar soddalashtirilib tuziladi. Bu jarayon o'quvchi egallashi kerak bo'lgan bilim ko'nikma va malakalarni egallay olguniga qadar bosqichma-bosqich soddalashtirilgan qisqa muddatli maqsad bilan davom etilishi maqsadga muvofiq. Qisqa qilib aytganda maqsad o'zgarmaydi usul o'zgaradi.

Aniq o'qitish usullari
1. _____
1.1.1. _____
1.1.2. _____
1.1.3. _____
1.1.4. _____
..... _____
Natija
<i>Bu yerga rejadagi qilingan ishning natijaviyligi qayd etiladi.</i>

8-rasm

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirish, misol tariqasida: o'z-o'ziga xizmat qilishini qo'llab-quvvatlashda eng kichik ko'nikmalardan boshlash. Amaliyotchi psixologlar tomonidan psixologik yordam berish, boshqa (sog'lom) bolalar bilan guruhli ishlash, yo'naltiruvchi tasmalar bilan harakatlanishini qulaylashtirish (dastlabki tushunchalar hosil bo'lgunga qadar) muhimdir.

Ko'rsatilgan barcha vazifalar bajarilgandan keyin natijaviylik qayd etiladi. Jarayonda uchragan barcha qiyinchiliklar hamda holat aniq yozilishi lozim. Qanday qo'shimcha ishlarni olib borish zarurati tug'ildi, qaysi ishlarni bajarishi yengil bo'ldi, qaysi holatda bajarishida qiyinchiliklar kuzatildi, qayta-qayta harakat qilishga to'g'ri kelganligi yozilishi zarur.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, individual ta'lim dasturi har yili yaratiladi va tegishli shaxslar bilan maslahatlashiladi. Bir yildan keyin, natijalar tegishli shaxslar tomonidan baholanadi va o'tgan yil natijalari bo'yicha yangi individual ta'lim dasturining bazasi yaratiladi.

Inklyuziv ta'limda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun individual rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish bo'yicha yo'riqnomaga
2-ilova

Individual ta'lim dasturida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning darsdagi xatti-harakatlarini psixologik-pedagogik baholash:

(bir necha kunlik kuzatuv natijalari kiritiladi)

Bolaning **F.I.SH.** _____;

Yoshi: _____;

Boshlang'ich sinf o'qituvchi, amaliyotchi psixolog, maxsus pedagog **F.I.SH.**

_____;

Sinf _____

Nazorat sanasi _____.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning bo'shliqlarini aniqlash bolaning asl holatini kuzatish va moslashuv monitoringini aniqlash uchun baholanadi.

Nazorat protokolida eng ko'p va kam javob bergan bolalar har xil grafikda joylashtiriladi. Natijalari past bo'lsa qo'shimcha psixologik-korreksion mashg'ulotlar zarurati paydo bo'ladi.

Darsdagi xatti - harakatlari psixologik-pedagogik baholanayotgan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning F.I.SH.

№	Baholashning tabiati	Baholash (Ijobiy yoki salbiy)
	I. Sinfdagi xatti-harakatlar	
1.	Dars jarayonida bezovta, diqqati tarqoq, berilgan ishini tugatmaydi	
2.	Takroriy vazifalar hamda doimiy kattalarning nazorati kerak	
3.	O'qituvchining ko'rsatmalari, bergan talablarini asta-sekin qabul qiladi, orqada qolish holatlari kuzatiladi. Berilgan vazifaga darhol qo'shilmaydi, uzoq vaqt davomida o'ylaydi	
4.	Sinfdagi o'qituvchini ish faoliyatini hamda bolani ta'lim-tarbiya olish jarayonini buzadi	
5.	O'qituvchining dars jarayonidagi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga berilgan talablarini hamda sinfning kundalik tartibini bajarmaydi	
6.	O'qituvchining frontal tarzda bergan ko'rsatmalarini qabul qilmaydi, dars davomida berilgan vazifalarga mustaqil ravishda qatnashmaydi (o'zini yo'q deb hisoblaydi) va kattalar yordamisiz sinf vazifalarini bajarmaydi	
II. Xizmat tezligi		
1.	Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning sekin, dangasa, boshqa (sog'lom) bolalar bilan tenglasha olmaydi, muvaffaqiyatga erishmaydi	

2.	Ish sur'ati beqaror, tez charchaydi, zaif	
3.	Ishtiyoq bilan ishlamaydi, ko'p xatolarga yo'l qo'yadi, darsning borish ketma-ketligini kuzatmaydi, ko'p tashvishlanadi	
4.	Ish sur'ati tez, lekin tartibsiz va o'rinsiz	
III. Kognitiv rivojlanish		
1.	Oddiy vazifalar va savollarga javob berishda qiyinchiliklar mavjud	
2.	Ko'pincha qo'shimcha yordamlar va tushuntirish kerak bo'ladi	
3.	Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni atrof-muhit haqidagi bilim va ko'nikmalar miqdori bolani o'rganishi uchun yetarli emas	
4.	Rasmdagi kerakli belgilarni darhol ko'rmaydi, daftardagi eslatmalar, darslikdagi to'ldirishi lozim bo'lgan joylarni yomon ko'radi	
IV. Og'zaki nutqni rivojlantirish		
1.	Og'zaki nutqi aniq emas, talaffuz bilan bog'liq muammolar mavjud bo'lsa	
2.	Boshqa (sog'lom) bolalar bilan solishtirganda, so'z boyligi kam, nutqning grammatik tuzilishida buzilishlar mavjud	
3.	Aniq ifodalash hamda fikrini bayon qilishda qiyinchiliklari bor, faqat bir bo'g'inli so'zlarda gapirishga harakat qiladi	
4.	Eshitish orqali ma'lumotni sekin qabul qiladi, og'zaki berilgan savollar va tushuntirilgan ma'lumotlarni tushunishda qiyinchiliklar kuzatiladi	
V. Tengdoshlari va kattalar bilan munosabat		
1.	Boshqa (sog'lom) bolalardan qochadi, kam muloqot qiladi, yolg'iz o'ynashni afzal ko'radi	
2.	Bolalar bilan ko'p urishadi, jahli tez chiqadi	
3.	"O'ynay olmayman, gapira olmayman" deb o'ziga ishonmaydi	
4.	Boshqa (sog'lom) bolalar, o'qituvchilar va kattalar bilan muloqotda bo'lishda uzoq masofada bo'ladi	
VI. Hissiy xususiyatlar		
1.	Doim kulib yuradi, ko'p gapiradi, "hamma joyda yuradi", ogohlantirish va tanqidlarga zaif javob qaytaradi	
2.	Hissiy ko'ngilsizliklarni osongina yengib ketadi, hayajon va g'azablanishdan bola darhol yig'lash va xafagarchilik holatiga o'tadi. Hissiy jihatdan beqaror bo'lishi, nazoratsiz kulishi, baqirishi, o'zi bilan gaplashish (<i>qaysi biri kuzatilsa tagini chizish kerak</i>)	
3.	Bolalar va kattalar bilan muloqot qilishda tajovuzkorlikni ko'rsatadi	
4.	Uni kayfiyati tushib ketganda qo'rquv, xavotir kuzatiladi, yig'laydi, o'z kuchiga ishonmaydi	
5.	Past baholarga, ogohlantirishlarga, muvaffaqiyatsizlikka noto'g'ri munosabat bildiradi, tashvish, qichqiriq, yig'lash, o'qituvchilar bilan janjallashish, ishlash jarayonidan bosh tortish kuzatiladi (zarurini ta'kidlang).	
VII. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni motor rivojlanishi		
1.	Yozuv grafik harakati sust rivojlangan, yozuvi egri, noaniq	
2.	Bolaning motor rivojlanishida umumiy muvofiqlashtirishi buzilgan, qo'pol, egiluvchan	
3.	U ishlash jarayonida va rasm chizish sohasida sezilarli muvaffaqiyatlarga erisha olmaydi	
4.	Ular ko'pincha chap qo'li bilan ishlashni yaxshi ko'radi	
VIII. Ijtimoiy va maishiy ko'nikmalar		
1.	Tugmalarni, tasmalarni o'tkazishda qiyinchiliklar yuzaga keladi	

2.	Mustaqil ravishda darsga tayyorlana olmaydi. Dars uchun kerakli daftar, darsliklar, o'quv materiallarini olishga yordam zarur	
3.	Noto'g'ri ovqatlanmaydi, ammo beparvolik qilib kiyinadi, har doim narsalarini yo'qotadi yoki unutadi (kerakli narsalarni tagiga chizish).	

Tugallangan sana "_____" _____ yil

O'qituvchi/mutaxassisning **F.I.SH.** va imzosi_____

Inklyuziv ta'limda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun individual rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish bo'yicha yo'riqnomaga 3-ilova

Darsdagi xatti-harakatlarini psixologik-pedagogik baholash natijasida aniqlangan muammolar va ulardan chiqish uchun zarur bo'lgan strategik rejalarga qo'yiladigan TALABLAR

Aniqlangan holat	Aniqlangan holat yuzasidan strategik rejalalar
<i>Xulq-atvor;</i> <i>Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolada ijobiy xulq-atvor kuzatilyaptimi yoki salbiy xulq-atvorga egami?</i>	Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan gaplashayotganda doimo uning ismi bilan murojaat qilish; aniq va tushunarli qilib gapirish; salbiy xatti-harakatlar kuzatilsa, sababini zudlik bilan aniqlashga harakat qilish va muammoni minimallashtirish zarur; muammoga duch kelsa ota-onalar bilan gaplashib, birgalikda harakat qilish; o'qituvchi o'zi, o'quvchi uchun ham aniq maqsadni belgilab olgan xatti-harakatlar rejasini belgilab olishi; o'quvchi belgilangan rejaga rioya qilmasa, yuzaga keladigan oqibatlar hamda ulardan chiqish yo'llarini ham nazarda tutish; ularga boshqa (sog'lom) bolalar bilan birgalikda topshiriqlarni bajarishi uchun imkoniyat taqdim qilish lozim.
<i>Diqqat;</i> <i>Bolani chalg'ib ketishi osonmi yoki berilgan vazifaga kirishi qiyinmi? Topshiriqlarni bajarishda qiynaladimi;</i> <i>Sinfda boshqa (sog'lom) tengdoshlari bilan ham qiyinchiliklarga uchramoqdami?</i>	Bolani sinfdagi chalg'itadigan predmetlardan uzoqda o'tirishiga ishonch hosil qilish (derazalar, qalam o'tkirlagich va boshqalar); boladan sinfning old va yomon tomonidagi part va stulda o'tirishini so'rash va shu orqali bola ko'proq e'tiborli bo'ladi; bolaga individual topshiriqlar berish uchun, tinch joy topishga harakat qilish; sinfda va uning yonida chalg'itadigan narsalarni imkon qadar kamaytirishga harakat qilish; bolaning qiziqishi, layoqatidan kelib chiqib vazifalar va tadbirlarni rejalashtirish maqsadga muvofiq; bolaga dars davomida dam olish daqiqalarini o'tkazish yoki biror bir tinchlantiruvchi musiqa tinglashiga ruxsat berish; bolaga sinfda ovqatlanishi yoki ichimlik ichishi uchun ruxsat berish; sinfdagi boshqa (sog'lom) bolalarni ham alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolaga berilgan vazifalarni bajarishi yoki o'qituvchilarga dars davomida bunday bolalarga yordam berishi uchun qo'shimcha vazifalar taqdim qilinishi; dars o'tish jarayonida nutqni aniqligiga alohida urg'u berish; ma'ruza vaqtida bolaga to'liq ko'rinadigan va yaqinroq turib gapirish; boshqa (sog'lom) bolalar berilgan vazifalarni o'z muddatida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar esa biroz kechikib, sekinlik bilan bajarishini hisobga olish (u uchun kichik hajmdagi quticha tashkil qilish, har bir oxiriga yetkazilmay qolgan vazifalarni shu qutichaga solib qo'yish va ularni qayd qilib borish. Vazifa yakunlasa "+" ishorasi bilan shu vazifa bajarilganligini belgilab qo'yiladi. Iloji

	bo'lsa "+" ishorasini qo'yishni bolani ixtiyoriga beriladi. Shunda bajarilmagan vazifalar uni yodida qoladi hamda ishora qo'yib motivatsiya oladi); noto'g'ri xatti-harakatlarning yuzaga keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan oqibatlari haqida kelishib olish; bolani qorni och qolganligini aniqlab olish, shunday holat aniqlansa, biroz bo'lsa ham ovqatlanishiga imkon berish.
Eshitish; <i>Alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolaning eshitish nuqsoni bormi?</i>	Bolani diqqatini jalb qilib olish, o'qituvchi o'zingizga qaratish uchun imo-ishora yoki norasmiy belgilar yordamida ma'lumot yetkazishga harakat qilishi (zaif eshitadigan bo'lsa asta-sekin imo-ishoradan voz kechish); boshqa (sog'lom) bolalar ham aniq gapirishi, har bir so'zni dona-dona talaffuz qilishiga undash; bolaga darsni turi, maqsadi, vazifasi haqida batafsil ma'lumotlar berish; berilayotgan ma'lumotlarni tushuntirish uchun diagrammalar, rasmlar va piktogrammalardan foydalanish; bolani turli vaziyatlarda ogohlantirish uchun signal yoki qo'ng'iroqlar, vizual ogohlantirishlar (miltillovchi chiroqlar, rasmlar va boshqalar) bilan birga bo'lishini ta'minlash; bolani doskaga yaqin, o'qituvchi hamda tengdoshlarini ko'rib turishi uchun qulay bo'lgan oyna tomondan hamda har qanday qatordagi birinchi va ikkinchi partada o'tirishini tavsiya qilish (og'zaki nutq 2,4 m, shivirlash esa 0,5 — 1 m masofadan qabul qilinadi); dars davomida o'rgangan so'zlarini uyda ham takrorlab mustahkamlashi uchun ota-onasiga yozib yuborish.
Jismoniy harakat (sinfga kirish) <i>Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolani sinfga kelib o'rniga kelib o'tirish va shu jarayonda uchraydigan qiyinchiliklar?</i>	Bolani o'z kuchi va ixtiyori bilan sinf xonasiga kirishiga va belgilangan o'rindig'iga kelib o'tirishiga ishonch hosil qilib olish; ta'lim-tarbiya olishi uchun berilgan o'quv materiallaridan mustaqil foydalana olishiga ishonch hosil qilish; sinfda mustaqil harakat qilishda muammolar yuzaga kelsa tengdoshlarini, tyutor (volontyor), ota-onasini yordam berish uchun tayinlash; sinf xonasidagi barcha mebel va jihozlarni bolani to'siqlarsiz harakat qilishi uchun o'zgartirish, shundan keyin u aniq yo'nalish bo'yicha harakatlanishiga sharoit yaratish; ularni maktabning birinchi qavatida joylashgan sinfda, mustaqil harakatlanishiga imkon berishni inobatga olib, o'rta qatordagi birinchi partaga joylashtirish (zarur holatlarda maxsus parta talab qilinadi) qolaversa, o'quvchilarning gavdalari buzilishini profilaktika qilish maqsadida, ularning o'sishiga mebel raqami mos kelishi, oxirgi qatorda o'tirganlar bir yilda 2 marta joylarini o'zgartirishlariga sharoit yaratish.
Jismoniy vazifalar Bola ruchka yoki qalamdan foydalanishda qiyinchilikka uchraydimi?	Unga qalin marker, bo'r, qalamlarni taqdim etish; ruchka yoki qalam tutqichlari bilan ta'minlash; bolani qo'l motorikasini rivojlantirish uchun mashq qilishga undash; mayda qo'l motorikasini rivojlantirish uchun bolani loy bilan o'ynashga taklif qilish; bola bilan to'g'ri qalam tutish texnikasini mashq qilish; zarur deb hisoblansa, ota-onasi bilan birgalikda shifokorga murojaat qilish.

O‘qish <i>Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bola berilgan vazifalarni o‘qib berayotgan vaqtida o‘z o‘rnida erkin turishda qiynaldimi?</i> <i>O‘qiganlarini eslab qolishda qiynaldimi?</i>	Bolaga o‘qiyotgan joyini barmog‘i bilan kuzatib borishini so‘rash; qo‘liga bir varaq qog‘oz berish va bolaga o‘qib bo‘lgandan keyin qaysi so‘z yoki jumlani yozib mazmunini ochib berishga ko‘rsatma berish; bolani diqqatini matn mazmuniga qaratishga yordam beradigan vizual belgilar bilan ta’minlash; bolani eslab qolishi yuqori bo‘lishi uchun qisqartma materiallar ishlab chiqish; bolaga o‘qiyotgan matnni parchalarga bo‘lib tushuntirish va o‘qigandan keyin u bilan umumlashtirishga harakat qilish; bola umumlashtira-olmay sarosimaga tushib boshlasa o‘z-o‘zini anglashi hamda o‘z-o‘zini nazorat qilishi uchun mavzudan tashqari savollar berib undashga harakat qilish; bola uchun qiziqarli bo‘lgan o‘qish materialini tanlashga ruxsat berish, unga qisqa-qisqa bo‘laklardan iborat kichikroq qismlarga ajratish; hech qachon bolani shoshirmaslik; dam olish daqiqalarida bolalarga o‘rganganlarini yodida saqlab qolishlariga yordam berish uchun xotirani kuchaytiradigan o‘yinlarni birgalikda o‘ynash va jo‘r ovozlarda qo‘shiqlar kuylash.
Ko‘rish <i>Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ko‘rish qobiliyatini tekshirish;</i> <i>Predmetlarni qo‘li bilan ushlab sezadimi?</i> <i>O‘qish uchun kitob va qog‘ozlarni ko‘ziga juda yaqin olib qaraydimi?</i>	Sinf xonasi yaxshi yoritilganligiga ishonch hosil qilish; bolani katta bosma materiallar yoki kattalashtirish moslamalari bilan ta’minlashga harakat qilish (oddiy qog‘ozga chiroyli qilib yirik-yirik shrift yozsangiz ham bo‘ladi); bolalarga “ko‘rish” imkonini beruvchi baland bosma nashrlardan yoki materiallardan foydalanib bolaga ma’lumot yetkazishga harakat qilish; nutqi aniq va ravon bo‘lgan tengdoshini yoniga o‘tirishini ta’minlash; zaif ko‘ruvchi bolani sinfga osongina kirib chiqishi uchun o‘rta qatordagi birinchi va ikkinchi partaga hamda ko‘rish qobiliyati past o‘quvchilarga tabiiy yoritish sharoiti ko‘proq bo‘lgan deraza tomondagi chekka stollardan joylar ajratilishi, shuningdek ko‘zoynak bilan ko‘rish qobiliyati yaxshi bo‘lgan o‘quvchilar istagan joylariga o‘tirishini tavsiya qilish; ko‘zoynakdan foydalanish uchun yorug‘lik tushishiga ahamiyat berish.
Imlo <i>Bolani so‘z boyligini qanchaligini hamda imlosini o‘rganish;</i>	Har doim bolani imloviy xatolariga ahamiyatli bo‘lish, zarur holatda lug‘atdan foydalanishga ruxsat berish; asosiy ish daftarlaridan tashqari bolaga oldindan mashq qilish uchun qog‘oz parchalarini berish; bolaga o‘zini erkin his qilishi, mashq qilishi va yangisini o‘rganishi uchun ko‘proq vaqt berish;
Vaqt/Tezlik <i>Ma’lum bir berilgan vazifa bajarib bo‘lganga qadar diqqatini jamlay oladimi?</i> <i>Charchab toliqib qolishi osonmi?</i>	Bolaga harakatlar yoki topshiriqlarni bajarish uchun qo‘shimcha vaqt berish; dars faoliyatida charchab yoki zerikib qolmasligi uchun bolaga kerak bo‘lganda tanaffus qilishiga, tabiat qo‘yniga sayr qilishiga ruxsat berish; mashg‘ulotlarni tashkil qilish jarayonida bolaning diqqatini jamlay oladigan kun tartibini tuzib olish; har qanday joyda va vaziyatda bo‘lishdan qat’iy nazar bolaga murojaat qilishda uning ismini aytish;

<i>Boshqa (sog‘lom) tengdoshlari bilan birgalikda ma’lumotlarni egallashi hamda analiz qilishi uchun ko‘proq vaqt kerakmi? Bolani berilgan savollarga javob berish vaqtini sekinlashtiradigan jismoniy muammosi mavjudmi?</i>	shevadagi so‘zlardan qochish, imkon qadar adabiy tilda muomala qilish, rasmiy munosabat o‘rnatish; erishgan har qanday natijani hajmiga ahamiyat bermasdan uni rag‘batlantirish; berilgan vazifalarni vaqtdan oldin bajargan bolalarni alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga biriktirib qo‘yish; bolalar haddan tashqari shovqin solsa, toliqib, zeriksa, sinfda “dam olish burchagi” yaratish va didaktik materiallar, tabiiy predmetlar bilan to‘ldirib qo‘yish.
<i>Tushunish, o‘rganish</i> <i>Bola tushunishda qiynaladimi? Bolaga ta’lim-tarbiya berishda tez-tez takrorlanadigan vazifalar zarur deb o‘ylaysizmi?</i>	Bolaga har bir o‘tiladigan darslar hamda mashg‘ulotlarning maqsadi hamda vazifasi haqida batafsil ma’lumot berish; dars oxirida umumiy xulosa berish; har bir yo‘nalishlarni ajratib olish va ularni bosqichma-bosqich taqdim etish; topshiriqlarni kichikroq vazifalarga bo‘lib berish; berilgan vazifalarni amaliy ifodalab berish mexanizmini ishlab chiqish; ma’lumotni vizual va og‘zaki ravishda taqdim etish; alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan boladan berilgan vazifalarni takrorlab aytib berishini yoki u nimani tushunganini aytib, ifodalab berishini so‘rash; bola bilan tushuntirish ishlarini olib borishda norasmiy tildan foydalanish, uni ham o‘qituvchini ham erkin his qilishi ta’minlanishi; bola uchun sehrli so‘zlar, ko‘rsatmalarni yodlatayotganda asosiy lug‘at atamalaridan foydalanish; sehrli so‘zlar, ko‘rsatmalarni bir necha marta takrorlash; odatiy takrorlanadigan ko‘rsatmalarni bolalardan bir-birlariga tushuntirishlarini so‘rash, do‘stona munosabat muhitini shakllantirish; ota-onalar bilan maktabda farzandining qanday vazifalarni bajarganligi haqida muloqot tizimini yo‘lga qo‘yish, shu orqali bolaning uyga berilgan vazifalarini bajarishiga yordam bera olishini ta’minlash.

Ta'limni rivojlantirish respublika
ilmiy-metodik markazining
2025-yil 26-martdagi
01-02/5-143-sonli xatiga
2-ILOVA

**Inklyuziv ta'limda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun individual
rivojlantirish dasturi maketi**

“TASDIQLAYMAN”

_____ viloyat (shahar) _____ tumani

_____ -sonli umumta'lim maktabi direktori

“ _____ ” _____ . (imzo)

_____ viloyat (shahar) _____ tumani _____ - sonli
umumta'lim maktabi inklyuziv ta'lim sinfi o'quvchisi uchun 20____ -20____
o'quv yili I- chorakka mo'ljallangan
individual ta'lim dasturi

Bolaning to'liq F.I.SH.: _____	
Bolaning tibbiy xulosasi (tashxisi): _____	
Yoshi: _____	
Jinsi: _____	
Sinfi: _____	
Individual dasturini boshlanish vaqti: “ _____ ” _____ 20____	
Individual dasturini yakunlash vaqti: “ _____ ” _____ 20____	
Sinf rahbarining F.I.SH.: _____	
Maxsus pedagog F.I.SH.: _____	
Maktab amaliyotchi psixologi F.I.SH.: _____	
Maktab tibbiy xodimi: F.I.SH.: _____	
Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolaning asl holati (kuzatish natijasida)	
Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kuzatish natijasi	
<u>Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolaning kuchli tomonlari</u>	<u>Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolaning zaif tomonlari</u>
✓	✓
✓	✓
✓	✓

Maktab amaliyotchi psixologining kuzatish natijasi	
Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning <u>kuchli</u> tomonlari ✓ ✓ ✓	Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning <u>zaif</u> tomonlari ✓ ✓ ✓
Maxsus pedagogning kuzatish natijasida	
Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning <u>kuchli</u> tomonlari ✓ ✓ ✓	Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning <u>zaif</u> tomonlari ✓ ✓ ✓
Maktab tibbiyot xodimi	
Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning <u>kuchli</u> tomonlari ✓ ✓ ✓	Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning <u>zaif</u> tomonlari ✓ ✓ ✓
Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ota-onasini farzandidan kutayotgan o'zgarishlardagi xohish va istaklari	
✓ ✓ ✓ 	
Uzoq muddatli maqsad (1 yillik)	
1. _____ 2. _____ 3. _____ _____	
Qisqa muddatli maqsad (1 chorak)	
1. _____ 1.1. _____ 1.2. _____ 1.3. _____ _____ 2. _____ 2.1. _____ 2.2. _____ 2.3. _____	

[illegible]

*** Qo'shimcha:** Inklyuziv ta'limda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar individual ta'lim dasturi namunasida ko'rsatilgan qatorlar soni chegaralanmagan.

Boshlang'ich va fan o'qituvchilari tomonidan fanlarda aniqlangan bo'shliqlarni maxsus pedagogga aytishi zarur. Maxsus pedagog umumiy mashg'ulotlarda, kichik guruhlarda va alohida-alohida mashg'ulotlar davomida aniqlangan bo'shliqlarni to'ldiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtidorli yoshlar bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 30-sentabrdagi PQ–346-son qarori “Maktab va maktabdan tashqari ta’lim, madaniyat va sport muassasalari pedagog va boshqa xodimlari mehnatiga haq to‘lash bo‘yicha bazaviy tarif stavkalari miqdorlariga muvofiq inklyuziv ta’lim tizimi joriy qilingan va tayanch korreksion sinflar ochilgan umumta’lim maktablarining maxsus pedagogi umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarining o‘qituvchisi, o‘qituvchi-logopedi, logopediya shoxobchasi mudiri, o‘qituvchi-defektologi bilan mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdoriga nisbatan (koeffitsiyentda) bir xil oylik maosh olishi belgilangan.

Shundan kelib chiqib, maxsus pedagogning haftalik o'quv yuklamasi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining "Umumta'lim muassasalarida sinflarni komplektlash

hamda tarifikatsiya ro'yxatlarini shakllantirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2020-yil 30-iyundagi (*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3271*) qarorida bir stavkada ishlovchi o'qituvchi uchun boshlang'ich I - IV sinflardagi haftalik o'quv yuklamasi - 18 soat va pedagogik yuklamasi - 18 soat bilan bir xil bo'ladi.

Shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" 2021-yil 12-oktabrdagi 638-sonli qarori hamda boshqa normativ huquqiy hujjatlarga muvofiq ustama haqi to'lanadi.

Izoh: Taqdim etilgan individual ta'lim dasturi maketi ko'rinishi doim bir xil bo'ladi, mazmuni esa o'zgaradi. Maxsus pedagog tomonidan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni individual holatidan, qiziqish-xususiyatidan kelib chiqib ota-onasi, amaliyotchi psixolog, tibbiyot xodimi, boshlang'ich sinf o'qituvchisi bilan hamkorligida har bir bola uchun alohida ishlab chiqiladi.

Ta'limni rivojlantirish respublika
ilmiy-metodik markazining
2025-yil 26-martdagi
01-02/5-143-sonli xatiga
3-ILOVA

**Inklyuziv ta'limda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun
INDIVIDUAL TA'LIM DASTURI NAMUNASI**

“TASDIQLAYMAN”
Toshkent shahar Bektemir tumani
290-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori
Sh. Normurodov
“ ” . (imzo)

**Toshkent shahri Bektemir tumani 290- sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi
inklyuziv ta'lim sinfiga qabul qilingan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan
o'quvchi uchun 2024/2025-o'quv yili I- chorakka mo'ljallangan
Individual ta'lim dasturi**

Bolaning to'liq F.I.SH. <i>Sulaymonov Shavkat Odiljon o'g'li.</i>	
Bolaning tibbiy xulosasi (tashxisi): <i>Xulq-atvor va ruhiyatning qo'pol buzilishlarisiz autistik spektri buzilishi.</i>	
Yoshi: <i>9.</i>	
Jinsi: <i>Erkak.</i>	
Sinfi: <i>1.</i>	
Individual ta'lim dasturini boshlanish vaqti: <i>“17”-sentabr 2025-yil.</i>	
Individual ta'lim dasturini yakunlash vaqti: <i>“4”-noyabr 2025-yil.</i>	
Sinf rahbarining F.I.SH.: <i>Alimova Gulnora Kabuljanovna.</i>	
Maxsus pedagog F.I.SH.: <i>Kasimova Mashkura Muhamadaliyevna.</i>	
Maktab amaliyotchi psixologi F.I.SH.: <i>Mo'minov Sulaymon Akbar o'g'li.</i>	
Maktab tibbiy xodimi: F.I.SH.: <i>Shavkatova Gulchiroy Salimovna.</i>	
Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolaning asl holati (kuzatish natijasida)	
Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning qiziqish-xususiyatlari, qobiliyatlari, kuchli va zaif tomonlari inklyuziv ta'lim jarayoni ishtirokchilari tomonidan yozib chiqiladi. Muloqotda qilishda qiyinchiliklarga duch keladi; Ijtimoiy munosabatlarga qiziqishi past; Takrorlanuvchi harakatlarni kuzatib turadi.	
Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kuzatish natijasi	
Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolaning <u>kuchli</u> tomonlari:	Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolaning <u>zaif</u> tomonlari: ✓ <i>sinf rahbaridan boshqa begona o'qituvchilar yoki</i>

✓ <i>sinf rahbari va boshqa (sog'lom) bolalar bilan bo'lganda o'zini erkin xis qiladi;</i> ✓ <i>og'zaki berilgan barcha ko'rsatmalarni tushadi;</i> ✓ <i>dars vaqtida tengdoshlari bilan bir qatorda qo'l ko'tarib javob bera oladi;</i> ✓ <i>o'qituvchi tomonidan vaqt chegaralanmaganda harflarni yoza oladi;</i> ✓ <i>va boshqalar...</i>	<i>o'quvchi bilan mashg'ulot, tadbirlarga qatnasha olmaydi;</i> ✓ <i>butun jamoa yoki sinfda tengdoshlari oldida gapirishga tortinadi;</i> ✓ <i>bir tekisdagi hamda bir xil o'lchamdagi harflarni yozishda qiynaladi;</i> ✓ <i>hatto bir xonali sonlarni qo'shib ayirishga qiynaladi;</i> ✓ <i>va boshqalar...</i>
Maktab amaliyotchi psixologining kuzatish natijasi	
<u>Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning kuchli tomonlari:</u> ✓ <i>erkin harakatlanishni yoqtiradi;</i> ✓ <i>maktabda ta'lim-tarbiya berishda onasi yonida bo'lishini xohlaydi;</i> ✓ <i>va boshqalar...</i>	<u>Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning zaif tomonlari:</u> ✓ <i>ota-onasi uni olib ketishga kechiksa, xavotirga tushib yig'laydi;</i> ✓ <i>uzoq vaqt bir mashg'ulot bilan shug'ullana olmaydi;</i> ✓ <i>juda tortinchoq;</i> ✓ <i>va boshqalar...</i>
Maxsus pedagogning kuzatish natijasida	
<u>Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning kuchli tomonlari:</u> ✓ <i>shashka-shaxmat o'ynashni biladi;</i> ✓ <i>hamma narsaga qiziqadi, befarqlik qilmaydi;</i> ✓ <i>tovush talaffuzida kamchiliklari kuzatilsada gapiradi;</i> ✓ <i>va boshqalar...</i>	<u>Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning zaif tomonlari:</u> ✓ <i>boshqa (sog'lom) tengdoshlari kabi maktab hojatxonasiga o'zi mustaqil bora olmaydi;</i> ✓ <i>tasavvur qilish va uni so'zlab berishda qiynaladi;</i> ✓ <i>bir nechta boshqa (sog'lom) bolalar bir vaqtda gapirsa gap mazmuniga umuman tushunmaydi.</i> ✓ <i>va boshqalar...</i>
Maktab tibbiyot xodimi	

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning kuchli tomonlari: ✓ <i>tibbiy asbob uskunalardan qo'rqmaydi;</i> ✓ <i>maktab tibbiyot xodimini o'ziga yaqin inson sifatida qabul qila oladi;</i> ✓ <i>tibbiyot xodimini ko'rsatmalariga amal qiladi.</i> ✓ <i>va boshqalar...</i>	Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning zaif tomonlari: ✓ <i>tibbiyot xodimini ko'rishi bilan yig'laydi;</i> ✓ <i>tibbiyot xonasidan uzoqroq yurishga harakat qiladi;</i> ✓ <i>uyda ota-onasi bilan ham o'tirganda tibbiyot xodimlari haqida suhbat qurishni xohlamaydi;</i> ✓ <i>va boshqalar...</i>
Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ota-onasini farzandidan kutayotgan o'zgarishlardagi xohish va istaklari	
✓ <i>ijtimoiy hayotga moslashishini, barcha (sog'lom) bolalardek o'qishini, yozishini, yurishini orzu qiladi;</i> ✓ <i>farzandini sinfdoshlari bilan do'stlashishini, tadbirlarda, sport mashg'ulotlarida ishtirok etishini xohlaydi;</i> ✓ <i>hojatxonaga mustaqil borib, o'z shaxsiy ehtiyojlarini qondirishini istaydi;</i> ✓ <i>va boshqalar...</i>	
Uzoq muddatli maqsad (1 yillik) (Qisqa muddatli maqsad uzoq muddatdan kelib chiqib ishlanadi)	
1. <i>Bola ijtimoiy hayotga moslashtiriladi.</i> 2. <i>Boshqa (sog'lom) bolalar qatorida umumta'lim maktabida bir xil shart-sharoitlarda ta'lim-tarbiya oladi.</i> 3. <i>O'qish, yozishga o'rgatiladi.</i> 4. <i>Mantiqiy fikrlash ko'nikmasi shakllantiriladi.</i> 5. <i>O'ziga bo'lgan ishonchi ortadi.</i> 6. <i>Va boshqalar...</i>	
Qisqa muddatli maqsad (1 chorak)	
1. Bola ijtimoiy hayotga moslash ko'nikmalari shakllana boshlaydi. 1.1. <i>Do'sti bilan birga hojatga, kutubxonaga, oshxonaga, faollar zaliga bora oladi.</i> 1.2. <i>Darsdan tashqari muzeyga boshqa (sog'lom) tengdoshlari bilan tomoshaga bora boshlaydi.</i> 1.3. <i>Va boshqalar...</i> 2. O'qish va yozishni o'rgana boshlaydi. 2.1. <i>Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolaning yoniga chiroyli yozadigan sinfdoshi o'tkaziladi.</i> 2.2. <i>Ruchkani qulay ushlashi uchun maxsus qisqichdan foydalana oladi.</i> 2.3. <i>Bir payting o'zida qo'l va ko'zi yordamida mashq bajarib boshlaydi.</i> 2.4. <i>Va boshqalar...</i> 3. Mantiqiy fikrlash qobiliyati shakllana boshlaydi. 3.1. <i>Rasmi hikoyalardan foydalana oladi.</i> 3.2. <i>Ranglar bilan ishlaydi.</i> 3.3. <i>O'zi yoki boshqa (sog'lom) tengdoshlari bilan roli o'yinlar o'ynay boshlaydi.</i> 3.4. <i>Va boshqalar...</i>	
Aniq o'qitish usullari	
1. Bola ijtimoiy hayotga moslashtirish ko'nikmalari shakllantiriladi.	

1.1. Do'sti bilan birga hojatga, kutubxonaga, oshxonaga, faollar zaliga bora oladi.

1.1.1. O'quvchiga psixologik-pedagogik yordam berish;

1.1.2. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolani yonida o'tiradigan faol o'quvchini yoki do'stlik munosabatlarini o'rnatgan tengdoshi bilan birga hojatga, kutubxonaga, oshxonaga, faollar zaliga olib borish.

1.1.3. Rangli ko'rsatkichli ishora (strelka)larni maktab oshxonasi, hojatxonasi va sport, faollar zaliga qarab joylash.

1.1.4. O'g'il bola do'sti yordamida o'qituvchilar hojatxonasiga olib borishni o'rgatish.

Natija

Bu yerga rejadagi qilingan ishning natijaviyligi qayd etiladi.

[illegible]

1.2. Muzeyga boshqa (sogʻlom) tengdoshlari bilan bora oladi.

1.2.1. Muzey haqida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga videorolik orqali tushuncha beriladi.

1.2.2. Inklyuziv ta'lim sinfi o'qituvchisi parallel bo'lgan sinf o'quvchilari bilan birgalikda muzeyga sayohat tashkil etishadi.

1.2.3. Muzeyga sayohat yakunlangandan keyin, dars mashg'ulotlari davomida taassurotlarini yozma bayon ettiriladi.

1.2.4 Va boshqalar.

Natija

Bu yerga rejadagi qilingan ishning natijaviyligi qayd etiladi.

[illegible]

Bu yerga rejadagi qilingan ishning natijaviyligi qayd etiladi.

2-3.1. A-4 formatdagi oq qog'oziga chapdan o'nga va tepadan pastga chiziqli chizish mashqlarini bajaradi.

2-3.2. Ipga munchoqlarni o'tkazish mashqini bajartiriladi.

2-3.3. Kichik topni mo'ljalga otish mashqini bajarishi kerak.

2-3.4. Kubiklarni bir qatorga terish mashqini qiladi.

2.3.5 *Va boshqalar.*

[illegible]

3.1. Rasmi hikoyalardan foydalana oladi.

3.1.1. Maxsus pedagog tomonidan “Sholg’om” ertagini alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarga so’zlab beriladi.

3.1.2. Ertakdagi voqealar ifodalangan rasmlar ketma-ketligi boshqa (sog'lom) bola bilan birga joylashtiriladi.

3.1.3 Va boshqalar.

Natija

Bu yerga rejadagi qilingan ishning natijaviyligi qayd etiladi.

3.2. Ranglar bilan ishlay oladi.

3.2.1. Ranglarni alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga tabiat bilan bog'lab aniq misollar keltirish orqali tushuntiradi.

3.2.2. Bolalarga tog' manzarasi ifodalangan rasmlarni bo'yatiladi.

3.2.3. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga bo'yalgan, tayyor rasmni ta'riflab berish so'raladi.

3.2.4 Va boshqalar.

Natija

Bu yerga rejadagi qilingan ishning natijaviyligi qayd etiladi.

3.3. Rolli o'yinlar o'ynay oladi.

3.3.1. Tanlash ixtiyori berilgan ertak qahramonlari orasidan birini tanlab, ushbu qahramonni bir bo'lib tengdoshlari bilan birga rol ijro qildiriladi.

3.3.2. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga barmoqlar orqali aks etgan multi figuralar yordamida "Zumrad va Qimmat" ertak qahramonlarini ovozlantirish o'rgatiladi.

3.3.3 Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolaga o'zi xohlagan hikoyasini aytirish yoki u bilan birga rasmlardan hikoyalar tuzish vazifasi bajartiriladi.

3.3.4 Va boshqalar.

Natija

Bu yerga rejadagi qilingan ishning natijaviyligi qayd etiladi.

Alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan o'quvchi uchun individual ta'lim rejasini maxsus pedagog tuzadi.

Maktab direktori tasdiqlaydi.

*** Qo'shimcha:** Barcha berilgan maqsadlar kuzatilgan qiyinchiliklarni yaxshilashga qaratilgan.

Izoh: Individual ta'lim dasturi barcha umumiy o'rta ta'lim maktablari inklyuziv ta'lim sinflariga qabul qilingan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun mos kelmasligi mumkin. Taqdim etilgan individual ta'lim dasturi maketi ko'rinishi doim bir xil bo'ladi, mazmuni esa o'zgaradi. Boshlang'ich va fan o'qituvchilari tomonidan fanlarda aniqlangan bo'shliqlarni maxsus pedagogga aytishi zarur. Maxsus pedagog umumiy mashg'ulotlarda, kichik guruhlarda va alohida-alohida mashg'ulotlar davomida aniqlangan bo'shliqlarni to'ldiradi. Har bir bandlardagi qatorlar soni chegaralanmaydi.